

# **SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA TIL, FOLKLOR VA MILLIY KOLORIT FENOMENLARI**

**Muyassar Yo‘ldosh qizi TILOVOVA**

dotzent

filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Turon universiteti

Qarshi, O‘zbekiston

## **Annotatsiya**

Maqolada yozuvchi Shukur Xolmirzayevning hikoyalarida folklorizm an‘analarining mohirona qo‘llanishi natijasida qahramonlarning yorqin va nafis, insoniy, axloqiy qiyofasini to‘laqonli chiza olganligi tahlilga tortiladi. Shuningdek, muallif asarlarida aks etgan Boysun xalqining qadim afsona, bayramlari tarixi, toponimlar, xalq termalari tarixiy-falsafiy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

**Tayanch so‘zlar:** kolorit, til, folklor, fenomen, ijodkor ongi, milliy til, sheva, xalq og‘zaki ijodi.

# **ФЕНОМЕНЫ ЯЗЫКА, ФОЛЬКЛОРА И НАЦИОНАЛЬНОГО КОЛОРИТА В ТВОРЧЕСТВЕ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА**

**Муяссар Юлдаш кизи ТИЛОВАВА**

доцент

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Университет Турон

Карши, Узбекистан

## **Аннотация**

В статье анализируется мастерское использование традиций фольклора в рассказах Шукура Холмирзаева, благодаря чему ему удалось полностью раскрыть яркий, изящный, человеческий и нравственный облик героев. Также рассматриваются историко-философские аспекты древних легенд, истории праздников, топонимов и народных терма (терминов) байсунского народа, отраженные в произведениях автора.

**Ключевые слова:** kolorit, язык, фольклор, феномен, сознание автора, национальный язык, диалект, устное народное творчество.

Yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad “Milliy hikoya: izlanishlar, yutuqlar, istaklar” maqolasida: “Zamonaviy milliy hikoyachiligimiz haqida so‘z yuritganda, uch muhim jihatni tilga olmog‘imiz lozim. Birinchidan, zamonaviy realistik o‘zbek hikoyachiligining o‘qtomiri xalq og‘zaki ijodi na‘munalariga, shuningdek qadimiy mumtoz adabiy meroslarimizga borib taqaladi”, – deya badiiy ijodda folklorning, xalqona mentalitetning ahamiyati qanchalik katta ekaniga to‘xtalib o‘tadi. Har bitta badiiy asardagi milliy til boyligi, uning tovlanishlari, qahramonlar portreti, urf-

odatlar, peyzaj kitobxonda matnda tasvirlangan makon va zamon haqidagi tasavvurning teranroq paydo bo'lishiga hissa qo'shadi. Yer yuzida yuzlab millat, turli xalqlar yashaydi. Har birining o'z dini, tili, libosi, milliy qadriyatlari, qon-qoniga singib ketgan yashash tarzi bor. Ular ming yillik an'analar sifatida qadrlanadi. Biroq ularning barchasi milliylikning, milliy koloritning tashqi ko'rinishi hisoblanadi. Uning ruhiy, botiniy ko'rinishi ham mavjudki, milliy xarakter teran tasvirlangan asarda insonning o'ziga xos ruhiy olami aks etadi. Har bir xalq o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida dunyoga o'ziga xos qarashlar tizimini shakllantirgan. Ammo milliylik faqatgina tashqi ko'rinish bilan belgilanmaydi. Milliylik, milliy ruh, avvalo, qalbda bo'ladi. Milliy tafakkur tizimining singdirilishi insonni dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, o'zini anglashiga yordam beradi. Milliy ruh ijodkor ongiga bolaligidayoq singadi va butun ijodi davomida aks-sadosini berib turadi. Shukur Xolmirzayev ijodida u yaratgan obrazlarda milliy ruh, Surxon vohasi koloriti sezilib turadi.

“Kolorit badiiy asarda tasvirlangan o'ziga xos xususiyatlar, urf-odatlar va qiliqlar” [1;145]. Milliy koloritni badiiy asarda aks ettirish muammosi ko'plab yozuvchi va adabiyotshunoslarni qiziqtirgan. Belinskiy milliy kolorit haqida shunday yozadi: “Asl nusxaga yaqinlik faqatgina harfning emas, balki ruhiyatning uzatilishidadir. Har bir tilning o'ziga xos vositalar, xususiyat va xossalari borki, tarjimada boshqa obraz yoki iborani to'g'ri yetkazish uchun ularni ba'zan butunlay o'zgartirishga to'g'ri keladi. Tegishli tasvir, shuningdek, tegishli iboraga doim so'z mos kelavermaydi. Tarjima qilingan iboraning ichki hayoti asl nusxaning ichki hayotiga mos kelishi kerak” [2;429]. Bu jihatga Chernishevskiy ham e'tibor qaratgan. U asar mazmunini uning shakli bilan chambarchas bog'lab, shunday izohlaydi: “Haqiqiy romanlar, real hikoyalar voqeligi mahalliy bo'yoqlarsiz, qahramonlardagi milliy elementlarsiz bo'lolmaydi. Mahalliy ranglar va milliy urf-odatlar, fikrlar, qahramonlarning harakatlarida milliylik bo'lmasa, hech qanday haqiqat ham yo'q” [3;129]. Demak, badiiy asarda milliylik, koloritni tekshirmay turib ijodkor ong fenomenologiyasiga kirib borish mumkin emas.

Milliy koloritning tashqi belgilari va uning ichki milliylik bilan bog'liq o'ziga xosliklarini farqlash zarur. Tashqi belgilar xalqning yashash tarzi, madaniyati, xarakteri, folklori, an'ana va udumlaridir. Ichki o'ziga xoslik esa milliy til bilan bog'liq. Demak, muayyan asarning lisoniy xususiyatlari milliy koloritning muhim jihatlaridan biri bo'lib, puxta o'rganishni talab etadi. Til xususiyatlarini o'rganishda milliy turmush tarziga oid so'z va tushunchalar, toponimlar, oilaviy munosabatlar, xalq va diniy urf-odatlarini ifodalovchi, davrni, odob-axloqni, tashqi ko'rinishni, xatti-harakatlarni aks ettiruvchi so'zlarga e'tibor qaratiladi. Misol uchun Shukur Xolmirzayevning "Bitikli tosh" hikoyasida milliy koloritning tashqi belgilari bilan birga qahramondagi ichki milliy ruh ham tasvirlanadi. Tashqi belgi sifatida Boyquvarning vafot etgan otasi qabriga tosh qo'ydirib, unga marhumning ismini o'yib yozdirishini ko'rsatishimiz mumkin. Millatimiz o'tkanlar ruhini hurmatlab qabriston, qabr atrofini hayvonlar payxon qilmasligi uchun o'rab qo'yishadi. Bu – millat qoniga singib ketgan ming yillik an'ana.

Asar voqeligi ittifoqning dinga, diniy qadriyatlarga qarshi kurash boshlab, ateistlikni targ'ib qilish kuchaygan davriga to'g'ri keladi. Hikoyadagi Dilnura obrazi kurashchilarning tipik vakili. Bu ayol uchun hukumat topshirig'i oldida ko'zi ojizlanib qolgan sinfdoshiga nisbatan odamgarchilik qilish tuyg'usi bir pul. Muallif asarda Dilnura portretini ishonarli chizgan. Biroq o'quvchi e'tiborini Boyquvar obraziga qaratarkan, uning xarakteri, voqelik jarayonida fe'l-atvori, qarashlari va e'tiqodining o'zgarib borishi fonida millatning bir vakili qalbida o'zlikka qaytish, chin halovatni tuyish kabi hislar uyg'onganini ko'rsatadi. Dastlab qahramon uchun e'tiqod partiya a'zoligi bileti edi. Aslida bunday e'tiqod o'sha davr kishilarining ko'pchiligida bo'lgan. Boyquvar qizil jildli bir parcha qog'oz uchun otasi qabridagi toshni olib tashlaydi. Otasining mozori ham eshaklar o'tlab yuradigan qabristonda do'ppaygan, ustini o't bosgan qabrlardan farq qilmay qoladi. Muallif shu o'rinda tuzumning samarali quroli bo'lgan partiya biletini va millatning millat sifatidagi bir belgisi qabr toshi motivini yonma-yon qo'yadi. Qahramonga ikkisidan birini tanlashi uchun tabiiy sharoit yaratadi. Boyquvar nima

qilishi kerak edi? Bugungi zamon o'quvchisi qabr toshini tanlashi, marhum otaga hurmat ko'rsatishi kerakligi to'g'ri ekanini biladi. Lekin qattol tuzum zamonida bu mumkinmidi? O'quvchining partiya safidan o'chirilmaslik uchun qabr toshini olib tashlagan Boyquvardan hafsalasi pir bo'ladi. Ongida qahramonga nisbatan norozilik paydo bo'ladi. Bu norozilik esa muallif ongidagi asl niyatga yaqinlashtiradi. Muallifning maqsadi inson e'tiqod qilishi kerak bo'lgan narsani to'g'ri tanlay olishini ko'rsatishdir. Tuzum, davr, siyosat, partiya, yot g'oyalarning o'tkinchi ekanini, o'zligini saqlab qola olgan xalq abadiy yashashini kitobxonga anglatishdir. Ijodkorning ongidagi fenomenlar Boyquvar obraziga ko'chib, hikoya so'ngida qahramon asl e'tiqodni taniydi. Muallif hikoyadagi ayni holatni shunday tasvirlaydi: "Keyin beixtiyor bulutli osmonga qarab qoldi-da, o'sha bulutlar ortida sirli bir olamu sirli va qudratli zot bordek tuyuldi. Va shu zahoti unga tavallo qila ketdi: – Ey Tangrim, agar bor bo'lsang, bu ahvolni... mening ahvolimniyam ko'rib turibsan! Senga topinguchi musulmonlarga muruvvat qilar emishsan... Mana, men ham senga yolvorayotibman. Chunki sendan boshqa zot qolmadi..." [5;355]. Ittifoq davri kishisi bu kabi e'tiqodni oshkora ko'rsatishi favqulotda hodisa edi. Adib Boyquvardagi e'tiqodlar almashuvini tasodif sifatida ko'rsatmagan. Bu e'tiqod aslida ajdodlar tomonidan singdirib kelingan, biroq oshkor etilmagan, pinhon tutilishga majbur etilgan. Hikoya syujetida Boyquvar o'zi ishongan tuzum, jon berib xizmat qilgan mafkura, partiya tomonidan itqitib tashlandi, keraksiz odamga aylantirildi. Shu sababdan qahramon "Men"ida mudrab yotgan asllik, chin e'tiqod o'zini ko'rsatdi. Bitta hodisa ortidan xotira qatidagi ko'plab nuqtalar qo'zg'aldi.

Fenomenolog M.Haydeggerning "Xo'lderlin va she'riyat mohiyati" maqolasida badiiy asarda insonning tushunchalarga nom berishida til shunchaki vosita emas, balki inson mavjudligining eng yuqori imkoniyati ekanligi ta'kidlanadi. Haydegger Xo'lderlin she'riyatidan bir satrni tahlil qilar ekan, shoirning nutqni "eng xavfli mulk" deb ataganiga e'tibor qaratadi. Badiiy asarda obrazlar nutqiga shunchaki qarab bo'lmaydi. Bir og'iz gapda butun davr, ijtimoiy hayot, tiriklik va o'lim, muallif dunyoqarashi, qaysidir g'oyaga da'vat yoki

umidsizlik aks etishi mumkin. Shukur Xolmirzayev ijodida ham til xususiyati alohida katta mavzu. Birinchidan, muallif tarixi, tili, etnografiyasi qadim zamonga borib taqaladigan Boysun elining farzandi, ikkinchidan ijodkor adabiy tilni, uni qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni yaxshi tushunadi, uchinchidan esa o‘zbek tiliga past nazar bilan qaralgan, rusiyzabonlik ancha obro‘li hisoblangan jamiyatda yashadi. Afsuski, bu davrda rus tili aholining eng chekka, eng quyi qatlamlarigacha kirib borgan. Odamlar orasida tushunsa-tushunmasa muloqotda ruscha so‘zlarni qo‘shib gapirish urfga aylangandi. Yuqoridagi omillar ijodkor hikoyalarida o‘z aksini topmay qolmagan. Muallifning aksariyat hikoyalarida zamonaviy, intelligent qahramonlarning ruscha jumladan muloqotda foydalanishi odatiy tarzda beriladi. Achinarlisi, o‘zga til so‘zlari cho‘pon nutqida ham, dehqon nutqida ham uchraydi. Masalan, “Arpali qishlog‘ida” hikoyasida qishloqning manzarasi chizilarkan o‘quvchi bu yerning juda ovloqda joylashgani, to‘rt-beshta xonadon yashashini anglaydi. Qahramonlardan biri Rasulboy esa “Sen ... zakunniy qallig‘imsan” kabi jumlaning otasining “hay enasi, berman ke!”, “Manavi kattakonini qo‘yib qo‘y, ro‘shan bo‘p tursin” yoki onasining “E, allag‘aytib bir kepsiz” [5;186-188] degan sof sheva so‘zlarining yonida ishlatadiki, bu til buzilishining barcha qatlamga kirib borganini ko‘rsatadi. “Kuzda bahor havosi” asaridagi Jondor ismining o‘zi asl sheva. Boysunliklar bo‘rini “jondor”, ilonni “arg‘amchi”, ayiqni “polvon”, quyonni “tovushqon” so‘zlari bilan nomlashgan. Bunday misollar “Yozuvchi” hikoyasida ham uchraydi. Jondor – ikki tilda aralash so‘zlash usulini mujassam etgan obraz. Uning tilida “gatop qilib”, “pojalusta”, “yest, hozir” kabi ko‘plab ruscha jumla uchraydi. Bunday so‘zlash tarzi o‘sha davr kishisi uchun odatiy hol edi. Chunki eski maktablar o‘rnida rus maktablari ochilib, ta’lim rus tilida berilgan. Biroq Shukur Xolmirzayev hikoyalarida adabiy til, sof Boysun shevasi so‘zlaridan ham foydalanishini xalqning o‘zligini saqlab qolishga urinish sifatida talqin qilish mumkin. Aynan, Jondor tilidan “sadag‘asi ketay shu isqotining”, “bugun allag‘aytib”, “e, yaznang o‘lib, yaznasiz qol”, “bepo‘st-po‘st”, “qirilib ketgurlar” kabi so‘zlarning muomalada bo‘lishi muallif qadimdan yashab kelayotgan xalq tilining yaxshi bilimdoni ekanini ko‘rsatadi.

Bunga sabab yuqorida ta’kidlaganimizdek, ijodkorning bolaligi o’tgan muhit va uning borliqdan qabul qilgan ilk fenomenlari bilan bog’liq.

Muallif real hayotda ham sheva va ruscha so’zlarni aralash ishlatishi bevosita o’zi qahramon bo’lgan asarlari voqeligidan seziladi. Masalan, “Yozuvchi”da Shukur Xolmirzayevning Boysunga yaqinlashishi bilan tili o’zgarishi haqidagi fikr Odil Yoqubov tomonidan bildirib o’tiladi. Chunki muallif ko’pgina obrazlari nutqida ruscha so’zlarni aralash qo’llashi, ayniqsa, roviyga tegishli jummalarda seziladi. Ammo bu usulda gapirish yozuvchining xatosi emas, o’sha davrda ittifoq hududida yashagan barcha millatning ahvoli shunday edi. Adib so’zlash tarzini o’zgartirmagan holda davr qahramonlari obrazini yorqinroq gavdalantirgan. Adabiyotshunos H.Boltaboyev o’zining “Nasr va uslub” risolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalari uslubidagi o’ziga xosliklarni quyidagicha tasniflaydi: a) muayyan xarakter va qahramonlarga qayta-qayta murojaat qilish; b) ularning fe’l-atvori va xarakterlarini har tomonlama tekshirish; d) qahramonlarning nutqi va hatti-harakati orqali voqelikni ko’rsatishga e’tiborini qaratish [4;30]. Demak, adib ijodida qahramon nutqi juda muhim hisoblanadi.

“Yozuvchi” hikoyasida Boysun shevasiga oid so’zlar ko’plab qo’llangan. Jiportepaning aslida Ifortepa so’zidan kelib chiqqani, ifor nomli xushbo’y o’simlik borligini aytib o’tadi. Cho’ntog’, Cho’ngtog’, Cho’ntov nomlari asli boysunliklarning qo’ng’irot urug’i shevasiga tegishli so’zlar bo’lib, ular o’zlarini chin o’zbeklar deb hisoblashadi. Bu urug’ odamlari o’z shevasida gapirgani uchun Shukur Xolmirzayev qahramonlarini ham shu shevada so’zlatadi. Hikoyada “ukkag’arlar”, “meyman”, “ena”, “ul”, “juragim tushdi”, “dassho”, “kelin-kepchik” kabi so’zlar uchraydiki, bu atmosfera kitobxonni butunlay tog’li xalq tilidagi sof sheva so’zlaridan bahramand etadi.

Xalq og’zaki ijodi na’munalarini, shevaga oid so’zlarni qo’llashdan birinchi maqsad qahramon psixologiyasini ochib berish bo’lsa, ikkinchi maqsadini muallif “Ko’k dengiz” hikoyasida ochiq aytib o’tadi. Adib Umrzoq akaning tashqi ko’rinishi, kiyinishi, yashash sharoitini tasvirlar ekan kitobxon tasavvurida mutlaqo bezarar, hatto achinish kerak bo’lgan obrazni gavdalantiradi. Biroq gap

qahramonning nutqi xususida ketganda u xavfli odamga aylanadi. “Endi “gurung” – Umrzoq akaning maza-bemaza gaplariga kelsak, u gaplar bolalarga aytiladigan qadim Oltoy rivoyatlari, ertaklari va... topishmoqlari bo‘lib, xususan, topishmoq birinchi o‘rinda ekan. Men pastroq pardada aytdim bu gapni. Aslida, bu mashg‘ulot – yoshlarga olis tarixdan so‘zlab berish, yurtga, elga bog‘liq tomirlarini mustahkamlash, bu narsani o‘yin-aytishuvlar orqali-da singdirish, sobiq olimning umr g‘oyasi ekan desam bo‘ladi” [5;447]. Hikoya qahramoni tilidan aytilgan bu gap asli ijodkorning o‘ziga tegishli. Chunki ijtimoiy tuzum sabab xalqni uyg‘otishda yozuvchi ishlatishi mumkin bo‘lgan birgina qurol u yozadigan asar, asardagi fikrlar edi. Har qanday jamiyatda adabiyotga nisbatan katta kuch sifatida qaraladi. Chunki ijodkor asari orqali o‘quvchi ongiga ta’sir qilib, ruhiyatiga turli g‘oya va fikrlarni singdirib qo‘yishi mumkin.

Milliylik – xalqning yashash tarzidan kelib chiqib ilk og‘zaki ijod na’munalaridayoq aks etadi. Har qaysi xalq adabiyotining boshi folklordir. Bugungi kunda yaratilayotgan zamonaviy badiiy asarlarning ham ildizi folklordan suv ichadi. Shukur Xolmirzayev ijodda o‘z yo‘lini, o‘z uslubini topishiga ham folklorning o‘rni beqiyos. Chunki ijodkor o‘tmishni, bobolar xotirasini, milliy ana’analarni toza saqlagan va doim ular bilan faxrlangan Surxon elining farzandi. Bolaligidan do‘mbira jo‘rligida aytilgan dostonlar, momolari aytgan o‘lanlar, chanqovuzning mungli nolasi bo‘ljak ijodkor ongidagi fenomenlarni shakllantirgan asosiy unsurdir. Yuqorida sanab o‘tilgan faktorlar ta’sirisiz adib ijodini fenomenologik tarzda tahlil qilish mumkin emas.

Shukur Xolmirzayevning badiiy asarda milliylikni qanday ifodalashi haqida gapirarkan adabiyotshunos Umarali Normatov shunday yozadi: “Adabiyotga Surxon koloritini – o‘zi tug‘ilib o‘sgan Boysun tog‘larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so‘zlash tarzini – dialektini olib kirdi” [6;199]. Yozuvchining asarlarida o‘z qiziqish va g‘oyalarining asosiy muammolarini aniq belgilab bergan. Uning qahramonlari falsafaga, psixologizmga moyil bo‘lsa-da nihoyatda sodda va jaydari tilda so‘zlashadi. Chunki yozuvchi bolaligidan xalq og‘zaki ijodini yaxshi bilgan va ularni tafakkuriga singdirgan.

Yozuvchining badiiy didi rivoyatlar, hikoyatlar, afsonalar, terma, laparlar orqali shakllangan. U hikoyalarida o'zbek xalqi tarixi va xalq amaliy san'atiga tez-tez murojaat qilishi tabiiy. Chunki bo'lajak yozuvchining dunyoni anglashi ayni shulardan boshlangan. U ong fenomenologiyasiga o'zi mansub bo'lgan xalq og'zaki ijodini mustahkam o'rnatgan. Ijodkor xalq orasidan chiqqani uchun xalq ijodiyoti unga yaqin hisoblanadi. Shu sabab adib folklor manbalariga murojaat qiladi, ongiga singib ketgan adabiy va folklor an'alarini o'quvchiga yaqinlashtirishga harakat qiladi. "Quyoshku falakda kezib yuribdi" hikoyasida shuurini, ruhiyatini "Zumrad va Qimmat" ertagi band qilgan, bolaligi o'tkan tog'laridan Zumradni axtargan shoir kechmishlari beriladi. Hikoya bosh qahramoni Quadrat obro'li, yurtda tanilgan shoirlardan. Lekin u doim ertakdagi hayotni qidirib, unga intilib, sog'inib yashaydi. Olim Toshboyev hikoyani "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" qissasi bilan taqqoslab tahlil qiladi. Jamshidni "Ikki sandiq" ertagi, Quadratni esa "Zumrad va Qimmat" ertagi ta'siridagi qahramonlar sifatida ko'rsatadi. Quadrat toza ruhiyat, bir lahzalik shaytoniy hirsga qul bo'lmagan obraz. U tog'da, g'ordagi lovillab turgan gulxan yonida o'zi bilan yonma-yon o'tirgan qizga ayol emas, bolaligidan eshitib katta bo'lgan sevimli ertagidagi xayoliy qiz sifatida qaraydi. U hayotining kemtik yeri to'lgandek, bir umr izlagan xayoliy qahramoniga duch kelgandek his etadi o'zini. Natijada, ruhiyati tiniqlashadi, ma'nisiz tuyulib qolgan hayotda yashash uchun kuch topadi. Ijodkorning bola paytida ongiga o'rnashgan qaysidir qahramon, qaysidir afsonaviy hikoya ta'siri u ulg'ayganida ham xotirasidan chiqib ketmaydi. Badiiy ijod hodisasining ehtiyoji bilan yuzaga qalqadi. Bunday xotiralar muallifda ham, kitobxonda ham mavjud. Faqat ijodkor badiiy matn orqali yuzaga chiqarsa, o'quvchi xotiralarini asarni qabul qilish jarayonida jonlantiradi.

Shukur Xolmirzayev "Navro'z, Navro'z...", "Mangu yo'ldosh", "Yozuvchi", "Kuzda bahor havosi", "Quyosh-ku falakda kezib yuribdi" hikoyalarida qadimiy afsonalar, ertaklar, milliy urf-odatlarini mohirona qo'llab qahramonlarining yorqin va nafis, insoniy, axloqiy qiyofasini ko'rsatadi. Buyuk xalq o'tmishi, uning qonli va shonli tarixi bilan bir qatorda davrimizning global

muammolariga ham to'xtalib o'tadi. Umumbashariy masalalarni ko'tarib, folklor motiv va syujetlaridan keng foydalangan holda personajlarning ma'naviy olamining teranligini ochib beradi. Hikoyalaridagi voqelik, syujetlar xalq og'zaki ijodida ma'lum bo'lsa-da, stilistik va mazmunli urg'u, intonatsiyalar yozuvchi olamining individual qarashlari bilan yanada boyiydi.

Muallif badiiyatining qadr-qimmatini shundaki, u Boysun xalqining qadim afsona, bayramlari tarixini, toponimlarni, xalq termalarini tarixiy-falsafiy jihatdan ko'rib chiqib, ularning gumanistik ildizlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ta'kidlaydi. Milliy koloritni bu kabi yoritish faqatgina millatning qadim ma'naviy boyligini puxta o'rganishdan tashqari uni qalbiga chuqur joylagan, his etgan adibning qo'lidan keladi.

“Ko'k dengiz” hikoyasida irimlar bilan bog'liq misollar uchraydi: “Otam yana miq etmasdan o'tirdi-da, keyin eshiklarni ochib qo'yib, uylarni supura boshladi. Qarab turibman... Shu, shu, yomon ish bu...

– Chiq, men uyni supuraman, – dedi.

Bu, meni haydagani edi” [5;396].

“Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” hikoyasida: “Yostiqlarning tagida pichoq. Yoki bir parcha non... Onam o'rgatgan-da bolalikdan. “Yarog' – qo'riqchi, bolam!” deb, hozir ham uyimizga borib yotsam yostig'im tagiga yo non, yo pichoq qo'yadi” [5;464], “Bandi burgut”da: “O'lay agar kultepani ham oy yorug'ida ko'p kuzatganman. Shiypon yuqorisidagi qabristonni ham. Axir, ko'priq, kultepa, mozorlar haqida qancha sirli afsonalar bor. Jin-ajinalar, yalmog'iz kampirlarning manzillari deyishardi-da” [5;10]. “Ozodlik” hikoyasida kimningdir qaytib kelishini istamasa, ortida tosh otib qolish irimi keltiriladi: “Mansurjon, sen ketding ko'zda yosh qoldi, Orqangdan otilgan parcha tosh qoldi” [5;510]. Xalqimizga xos bo'lgan bu kabi irim va odatlar adib hikoyalarida ko'plab uchraydi.

Muallif mukammal va badiiy jihatdan barkamol asarlar yaratish uchun ijod laboratoriyasini o'zi tegishli bo'lgan xalq qadriyatlari, uning og'zaki ijodi na'munalari bilan to'yintiradi. Agar asardan milliy ruh ufurib turmasa, yasama syujetga aylanadi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan otni e'zozlash, unga hayvon sifatida

emas, chin do'st, vafodor hamroh sifatida qarash, uni ideallashtirish yozuvchining "Ot egasi" nomli hikoyasida o'z aksini topgan. Ota-bobolar, qadim Boysun erlari otni sodiq do'st va yordamchi sifatida tushungan. Ot yigitlarning ori sanalgan. Bunday qarash faqat Surxon vohasida emas, o'lkamizning ko'plab joylarida mavjud. O'zbek dostonlarida ot olis safarda sadoqatli yo'ldosh, jangda yigitning qanoti, ko'pkarilarda orini ajtarib olishga ko'maklashgan do'st sifatida kuylangani bejiz emas. Muallif "Ot egasi" hikoyasida inson bilan ot o'rtasida yaqin munosabatni ko'rsatishga harakat qilgan. Asarda ot egasini sel kelganida omon olib chiqqani, yolg'iz yigitni jim tinglab dardlariga taskin bo'layotgani epizodlari berilishining o'ziyoq hayvon va inson o'rtasida tushunarsiz aloqa, rishta borligini ko'rsatib turadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
- 2.Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. – Москва: Просвещение, 1954.
- 3.Чернишевский Н.Г. Статьи, исследования и материалы. – Научная книга, 1964.
4. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан. 1992.
- 5.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2020.
6. Норматов У. Насримиз анъаналари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978.
7. Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига хослиги: филология фанлари номзодлиги диссертацияси. – Тошкент, 1999.
8. Тавалдиева Г. Шукур Холмирзаев ҳикояларида воқеликни бадиий идрок этиш принциплари: филология фанлари номзодлиги диссертацияси. – Тошкент, 2001.

9. Шахобов К. Б. Ҳозирги ўзбек насрида ўтиш даврининг бадиий талқини (Шукур Холмирзаев асарлари мисолида): филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Фарғона, 2019.
10. Саттарова Г.Ю. 90-йиллар ҳикоячилигида миллий характер муаммоси. Филология фанлари номзодлиги диссертацияси. – Тошкент, 2002.
11. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари (айрим луғавий ва услубий жиҳатлари): филология фанлари номзодлиги диссертацияси. – Тошкент, 2000.